

JA'HON ADABIYOTIDA MIF-AFSONA VA UNING BADI'Y TALQINI

Rafiqova Elmira Aktamqulovna
Markaziy Osiyo xalqlari tillari va
madaniyati instituti, Filologiya va tillarni
o'qitish (O'zbek tili) yo'nalishi
1-bosqich 107-guruh talabasi
elmirarafiqova897@gmail.com
+998904663906

Annotatsiya: Ushbu maqolada jahon adabiyotida miflarning o'rni va ularning badiiy asarlardagi rolini o'rganishga bag'ishlangan. Miflar yillar mobaynida jamiyat tomonidan sayqal berilgan va ular xalqlarning ijtimoiy hayotini va tabiat hodisalarini tushuntirish maqsadida yaratilgan. Miflar hamma xalqda bor. Ular qayerdadir bir-birlaridan farq qilsa, qayerdadir o'xshaydi, qayerdadir syujet chiziqlari kesishadi. Albatta, bu borada xalqlarning geografik hududi, turmush tarzi va darajasi ko'p narsani belgilab beradi. Shuningdek, miflar adabiyotda ramziy ma'no kasb etib, mualliflarning badiiy tasvir vositasiga aylangan. Antik davrdan boshlab ko'plab asarlarda mifologik obrazlar asosiy g'oya va mazmunni ochib berishda muhim rol o'ynagan. Miflar orqali insoning ezgulik va yovuzlik, hayot va o'lim, tabiat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Jahon adabiyoti, mif, mifologiya, antik adabiyot, obraz.

MYTH IN WORLD LITERATURE AND ITS ARTISTIC INTERPRETATION

Abstract: This article examines the role of myths in world literature and their artistic interpretation in literary works. Over the centuries, myths have been shaped and refined by societies and were created to explain social life and natural phenomena. Every culture possesses its own myths; while they may differ in certain aspects, they also share similarities, and in some cases their plot lines intersect. The formation and development of myths are largely influenced by the geographical location, lifestyle, and cultural level of different peoples. Furthermore, myths have acquired symbolic meaning in literature and have become an important artistic device for authors. Since ancient times, mythological images have played a significant role in revealing the main idea and content of many literary works. Through myths, the relationships between good and evil, life and death, nature and society have been explored and interpreted.

Keywords: World literature, myth, mythology, ancient literature, mythological image, artistic interpretation.

Mif insoniyat tafakkurining eng qadimiy, murakkab va ko'p qatlamli hodisalaridan biridir. U ibtidoiy insonning borliq, tabiat, jamiyat va inson ruhiyati haqidagi tasavvurlarini ramziy shaklda ifodalagan. Mif dastlab diniy-e'tiqodiy va marosimiy xarakterga ega bo'lgan bo'lsa, keyinchalik badiiy tafakkurning muhim manbaiga aylangan. Jahon adabiyotida mif va uning badiiy talqini turli davr va madaniy muhitlarda turlicha ko'rinish kasb etib, adabiy jarayonning muhim estetik omillaridan biri bo'lib kelgan. “Mif” (yunoncha “mythos” — rivoyat, hikoya) Qadimgi kishilarning borliq olam haqidagi ibtidoiy tasavvurlari majmuyi bo'lib, koinotning yaratilishi, inson, o'simliklar va hayvonot dunyosining vujudga kelishi, samoviy jismlarning paydo bo'lishi, tabiiy hodisalarning sabablari va mohiyati, afsonaviy qahramonlar, ma'budalar va ilohlar to'g'risidagi e'tiqodiy qarashlarni o'z ichiga oladi[1].

Jahon adabiyotida mif nazariyasini ilmiy asosda o'rganish XIX–XX asrlardan boshlandi. Shotland olimi James George Frazer o'zining “The Golden Bough” asarida mifni qadimgi marosim va diniy e'tiqodlar bilan bog'liq holda tahlil qiladi. Unga ko'ra, mif marosimlarning og'zaki izohi sifatida yuzaga kelgan [2]. Shveysariyalik psixanalitik Carl Gustav Jung esa mifni “kollektiv ongsizlik” mahsuli deb hisoblaydi. Jung nazariyasiga ko'ra, miflarda insoniyat ongiga xos arxetiplar — Qahramon, Ona, Soyalar kabi universal timsollar mujassam bo'ladi. Fransuz antropologi Claude Lévi-Strauss esa strukturalizm asosida mifni tafakkurning mantiqiy modeli sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, mif qarama-qarshi tushunchalar (hayot–o'lim, tabiat–madaniyat, kaos–kosmos) o'rtasidagi ziddiyatni bartaraf etishga xizmat qiladi.

Demak, mif nafaqat adabiy hodisa, balki falsafiy, psixologik va madaniy fenomen sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Jahon adabiyotining ilk namunalarida mifologik tafakkur yetakchi o'rin tutadi. Qadimgi yunon adabiyotida mif asosiy syujet manbai bo'lib xizmat qilgan. Masalan, Gomerning “Iliada” va “Odyssey” dostonlarida yunon mifologiyasidagi xudolar va qahramonlar ishtirok etadi. Bu asarlarda mif real tarixiy voqealar bilan uyg'unlashib, qahramonlik va taqdir g'oyasini badiiy ifodalash vositasiga aylangan.

Qadimgi yunon tragediyasida ham mifologik syujetlar chuqur falsafiy mazmun bilan boyitilgan. Sophoclesning “Oedipus Rex” asarida mif inson taqdiri, iroda erkinligi va fojiaiviylik muammosini ochishga xizmat qiladi. Sharq adabiyotida ham mifologik qatlam kuchli. Hind eposlari — “Mahabharata” va “Ramayana” — mifologik, diniy va falsafiy qarashlarning sintezidir. Ularda kosmik tartib, ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurash, ilohiy iroda kabi masalalar markaziy o'rin tutadi.

O'rta asrlarda mif diniy tasavvurlar bilan uyg'unlashib ketadi. Xristian mifologiyasi asosida yaratilgan asarlarda diniy ramzlar badiiy shaklga ega bo'ladi. Masalan, Dante Alighierining “Divine Comedy” asarida antik mifologiya va xristianlik qarashlari sintez qilinadi. Dante Vergiliy obrazini mifologik va tarixiy timsol sifatida

talqin qilib, uni ruhiy yetakchi darajasiga ko'taradi. XX asr adabiyotida mif yangi estetik vazifa kasb etdi. Modernist yozuvchilar mifni kompozitsion model va ramziy struktura sifatida qo'lladilar. Masalan, James Joycening "Ulysses" romani qadimgi yunon mifologiyasidagi Odissey syujeti asosida yaratilgan. Asarda bir kunlik voqea universal mif darajasiga ko'tarilib, zamonaviy insonning ichki iztiroblari ochib beriladi.

Qadimgi inson tabiat hodisalarini ilmiy asosda tushuntira olmaganligi sababli ularni ruhlar faoliyati bilan bog'lagan. Masalan, shamol, chaqmoq yoki suv toshqini ma'lum bir ruhning ta'siri sifatida talqin qilingan. Animizm miflarning shakllanishida muhim rol o'ynab, tabiat va inson o'rtasidagi aloqani muqaddas va sirli hodisa ekanligini ko'rsatgan. Ko'plab xalqlarning animiztik qarashlari saqlanib, keyinchalik ramziy ma'no sifatida kasb etgan.

Mifologik qarashlarning rivojlanishida antik adabiyotning o'rni beqiyosdir. Ayniqsa yunon va rim miflari jahon adabiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatgan. Masalan, Appolon, Zevs, Afina, Prometey kabi obrazlar insoniy fazilatlarini o'zida to'la aks ettirgan. Bu obrazlar orqali yaxshilik va yomonlikni, saxovat va adolat kabi tushunchalarni yoritib bergan. Misol uchun, Afina obrazini oladigan bo'lsak, u donishmandlik, aql-zakovat va adolatli urush ma'budasi sifatida tasvirlangan obrazdir. U Zevsning qizi bo'lib rivoyatlarga ko'ra, u qurollangan holda uning boshidan tug'ilgan. Bu holat Afinaning aql – zakovat timsoli ekanligini anglatadi.

Miflarda ko'tarilgan masalalar – adolat va jazo, jasorat va qo'rquv, ishonch va umid kabi tushunchalar bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Har bir mif zaminida chuqur ramziy ma'no yashiringan bo'lib, u inson ruhiyati va ichki kechinmalarini badiiy shaklda ifodalaydi. Aynan shu jihati bilan mifologiya oddiy hikoya emas, balki falsafiy va estetik tafakkur mahsuli ekanligi namoyon bo'ladi. Shuningdek, antik davr mifologiyasi jahon adabiyotida obraz yaratish, syujet qurish va ramziy ifoda vositalarini shakllantirishda muhim omil bo'lgan. Ko'plab yozuvchi va shoirlar mifologik motivlarga murojaat qilib, ularga yangi mazmun yuklaganlar. Bu esa miflarning adabiy va yashovchan ekanini ko'rsatadi.

Umuman olganda, mifologiya insoniyat tafakkurining dastlabki bosqichlarini aks ettiruvchi, lekin mazmunan hozirgi davr bilan ham bog'liq bo'lgan bebaho ma'naviy merosdir. Uni o'rganish orqali nafaqat qadimgi dunyoqarashni, balki inson tabiatining o'zgarmas jihatlarini ham anglash mumkin. Miflar zaminida insoniyatning qo'rquv va ishonchlari, orzu va iztiroblari mujassam bo'lgan. Ular orqali qadimgi odamlarning borliqni tushuntirishga bo'lgan ehtiyoji namoyon bo'ladi. Shu jihatdan mifologiya faqat o'tmish yodgorligi emas, balki ma'naviy tajriba maktabi hamdir. Bugungi kunda ham adabiyot, san'at va hayot kundalik nutqda mifologik ramzlar qo'llanilishi buning isbotidir.

O'zbek folklorshunosligida mif va afsonalarni o'rganish bir necha yo'nalishda olib borilgan: janr tasnifi va poetika (Mirzayev, Imomov) [3,4], mifologik genezis va arxaik qatlam (Jo'rayev, Sarimsoqov) [5,6], ertak va mif munosabati (Afzalov) [7], marosim folklori va qadimgi e'tiqodlar (Sarimsoqov). Ushbu tadqiqotlar natijasida o'zbek mifologiyasi mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida shakllandi va bugungi kunda ham izchil rivojlanib bormoqda.

O'zbek badiiy adabiyotida mif va afsonalar qadimiy folklor manbai sifatida emas, balki ramziy-estetik model, tarixiy xotira, milliy o'zlikni anglash vositasi hamda falsafiy umumlashtirish shakli sifatida talqin qilingan. Turli davrlarda mutafakkirlar mifologik obraz va syujetlarni yangicha badiiy ma'no bilan boyitganlar.

Alisher Navoiy asarlarida Jamshid, Zahhok, Farhod, Iskandar kabi afsonaviy qahramonlar timsoli keng qo'llanadi. Ayniqsa, "Farhod va Shirin" dostonida Farhod obrazi nafaqat afsonaviy qahramon, balki muhabbat va fidoyilik timsoli sifatida talqin qilinadi. Bu asarlarda mifologik obrazlar: ideal qahramon yaratish vositasi, axloqiy-irodaviy komillik mezoni, ramziy-badiiy bezak vazifasini bajargan. XX asr boshlarida jadid adabiyotida mif va afsonalar milliy uyg'onish g'oyasi bilan bog'landi. Afsonaviy qahramonlar milliy o'zlik va tarixiy xotira ramziga aylandi. Cho'lpon she'riyatida tarixiy va ramziy timsollar orqali millat fojiasi va ozodlik g'oyasi ifodalanadi. Mifologik qatlam bu davrda bevosita emas, balki ramziy-falsafiy shaklda namoyon bo'ladi.

XX asrning ikkinchi yarmida o'zbek adabiyotida mif va afsonalarga murojaat qilish yangi bosqichga ko'tarildi. Endi mif tayyor syujet emas, balki ramziy tafakkur modeli sifatida talqin qilindi. Masalan, Asqad Muxtorning asarlarida mifologik ramzlar inson ruhiyati va tarixiy jarayonlarni ifodalash vositasiga aylangan. Mif obrazlari orqali zamonaviy insonning ma'naviy izlanishlari yoritiladi. O'tkir Hoshimovning asarlarida xalqona rivoyat va afsona elementlaridan foydalanib, milliy ruh va axloqiy qadriyatlarni yuksaltiradi. Mifologik tasavvurlar ko'pincha xalq og'zaki ijodi bilan uyg'unlashgan holda beriladi. Erkin A'zamning nasrida afsonaviy va ramziy qatlam psixologik talqin bilan uyg'unlashadi. Mif bu yerda ichki drammatizmni kuchaytiruvchi vositaga aylanadi. Shukur Xolmirzayev ijodida hikoya va qissalarida qadimiy tasavvurlar, xalqona e'tiqodlar, arxaik mifologik elementlar zamonaviy realizm bilan uyg'unlashadi. Tabiat, tog', muqaddas joylar tasviri ko'pincha mifologik ong bilan bog'liq holda talqin qilinadi.

Zamonaviy o'zbek she'riyatida mifologik arxetiplar keng qo'llanadi. Masalan, Abdulla Oripov she'riyatida tarixiy va afsonaviy obrazlar milliy g'urur va ma'naviy tiklanish ramzi sifatida talqin qilinadi. Bu yerda milliy tarixni qayta talqin qilish, zamonaviy ruhiy inqirozni ifodalash, abadiy qadriyatlarni yuksaltirishga intiladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. <https://www.izohli.uz/words/MIF>

2. Frazer, James George. The Golden Bough: A Study of Magic and Religion. 1923. P.327
3. **Mirzayev T.** *Folklor va adabiyot.* — Toshkent: Fan, 1993. — 224 b.
4. **Imomov K.** *O'zbek xalq rivoyatlari poetikasi.* — Toshkent: Fan, 1990. — 216
5. **Jo'rayev M.** *Mif va folklor.* — Toshkent: Fan, 2010. — 192 b.
6. **Sarimsoqov B.** *O'zbek marosim folklori.* — Toshkent: Fan, 1990. — 208 b.
7. **Afzalov M.** *O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi.* — Toshkent: O'qituvchi, 1972. — 240 b.